Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические вопросы совершенствования системы налогообложения субъектов предпринимательства в Узбекистане. Проанализированы пути поддержки предпринимательской деятельности посредством либерализации налоговой политики, упрощения механизмов налогообложения и цифровизации налогового администрирования. Также обозначены существующие проблемы в налогообложении субъектов малого и среднего бизнеса, организационно-правовые механизмы их устранения и направления совершенствования на основе зарубежного опыта. Результаты исследования включают предложения, направленные на создание благоприятной налоговой среды для субъектов предпринимательства, обеспечение прозрачности налогообложения и стимулирование экономического роста.

Ключевые слова: налогообложение, субъект предпринимательства, налоговая политика, налоговое администрирование, цифровизация, экономический рост, налоговые поступления, анализ рисков, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, adolatli va qulay soliqqa tortish tizimining mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yukini maqbullashtirish va soliq ma'murchiligini soddalashtirish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, soliq siyosatini liberallashtirish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish va raqamlashtirish



jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekistonlik olimlar — A. Azizov (2021), M. G'ulomov (2020), B. Abdulkarimov (2022) tadqiqotlarida tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish mamlakatda biznes muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, soliq siyosatini soddalashtirish va raqamlashtirish orqali soliq ma'murchiligini samarali tashkil etish mumkin.

Xorijiy iqtisodchilar — J. Stiglitz (2015), R. Musgrave (1989), A. Smith (1776) o'z asarlarida soliqqa tortishning adolat, barqarorlik va iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlarini nazariy asoslab beradilar. Ularning ta'kidlashicha, soliqqa tortish tizimining soddaligi va shaffofligi tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omildir.

OECD (2020) va World Bank (2021) hisobotlarida soliqqa tortish tizimlarining raqamlashtirilishi orqali soliq bazasini kengaytirish, korrupsiyani kamaytirish va soliq to'lovchilarning ishonchini mustahkamlash bo'yicha ilg'or amaliyotlar keltirilgan.

S. M. Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish soliq to'lovchining rejalashtirilgan harakatlari sifatida namoyon bo'ladi [1]. A. Makoveskiy va Ye. A. Zareskaya kabi olimlar soliqlarni optimallashtirishning keng tarqalgan qonuniy shakllaridan biriga ta'rif berar ekan, "soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish orqali soliq majburiyatlarini kamaytirish tushuniladi. Bunda soliq va jinoyat qonunchiligi normalari buzilmaydi, soliq to'lovlari qonuniy asoslarda minimal darajaga tushiriladi", deya ta'riflaydi [2].

E. Guver "Germaniyada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash istagi tug'ilish istagidan kuchliroqdir" deya fikr bildirar ekan, soliqdan bo'yin tovlashning ijtimoiy-siyosiy ildizlariga e'tibor qaratgan [3].

Rossiyalik olim L. Aleksandrova tadqiqotlarida "soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ommaviyligi va soliq jinoyatlarining aniqlanish darajasi pastligi ularni fosh etish bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqish zarurligini yuzaga keltiradi", deya ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, soliq jinoyatlarini aniqlash boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda murakkab bo'lib, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida sud-buxgalteriya tahlilini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

A. R. Abdullina esa soliqdan qochish holatlarini aniqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar duch keladigan murakkabliklarni qayd etadi. Jumladan, buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishdagi qiyinchiliklar, tez tashkil etilib tez yopiladigan korxonalarni monitoring qilishdagi malaka yetishmovchiligi, fuqarolik va iqtisodiy hujjatlarni integratsiyalash asosida baholashning murakkabligi, shuningdek ayrim qonun hujjatlarining yetarli darajada takomillashmaganligi soliqdan qochishni kamaytirish bo'yicha choralar samaradorligini pasaytiradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi soliq siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari va mahalliy soliq organlari ochiq ma'lumotlar bazasidan olingan ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni qiyosiy tahlil, dinamika tahlili va kontent tahlili usullari orqali baholashga asoslanadi. Analitik xulosalar empirik ma'lumotlar bilan solishtirish yo'li bilan shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va raqamlashtirish darajasini oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, soliq ma'murchiligidagi ayrim murakkabliklar, hisobotlarning ko'pligi, tekshiruvlarning takroriyiligi va soliqlarni boshqarishdagi nomutanosibliklar tadbirkorlik faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

"Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish" g'oyasi alohida bir davlatda yoki aniq bir sanada paydo bo'lgan emas — bu jarayon bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bosqichma-bosqich shakllangan.

1-yo'nalish. 1.1. Aholi va tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar berish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha:

a) 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha ishga qabul qilingan kambag'al oila a'zolari (ish haqi kamida 1,7 mln so'mni tashkil qilganda) uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi (amalda 12 foiz).

b) 2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-sentabrga qadar tadbirkorlar tomonidan kasbga o'rgatish uchun ishga qabul qilingan maktab, kollej va texnikum o'quvchilariga daromad solig'i hamda ularning oylik ish haqiga hisoblangan ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilandi (amalda 12 foiz).

v) 2028-yil 1-yanvargacha magistral yo'llar bo'yida ko'chma savdoni tashkil qilgan yoshlar (30 yoshgacha) faoliyatining dastlabki 6 oyi davomida soliqlarni to'lashdan ozod etildi.

g) 2029-yil 1-yanvargacha nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlar (soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan) foyda solig'ini to'lashdan ozod etildi. Nashriyot va matbaa korxonalari ixtiyorida yiliga 600,0 mln so'm mablag' qoladi.



d) Ay-Ti park rezidentlariga QQSdan tashqari barcha soliqlarni (foyda, yer, mol-mulk, suv solig'i, aylanma solig'i, ijtimoiy soliq) to'lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar 2040-yil 1-yanvargacha (amalda 2028-yil 1-yanvargacha edi) uzaytirildi (14.10.2024-yildagi PF-157-son Farmon). Mazkur imtiyoz eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar va 18 yoshdan oshgan bitiruvchilarning 50 foizdan ortiq qismi eksportchi korxonalarga ishga joylashgan Ay-Ti ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga tatbiq etiladi. Tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 1 trln so'mgacha mablag' qolishi kutilmoqda.

y) 2025-yil 1-fevraldan 2040-yil 1-yanvargacha eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan Ay-Ti park rezidentlarining ta'sischilariga dividend solig'i 5 foiz (amalda 10 foiz) etib belgilandi. Ta'sischilar ixtiyorida 10,7 mlrd so'm mablag' qoladi.

j) 2025-yil 1-fevraldan 2030-yil 1-yanvargacha eksport hajmi yiliga 10 mln dollardan oshgan Ay-Ti park rezidentlariga xizmat ko'rsatgan nerezidentlar foyda solig'idani ozod etildi.

z) Nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari 2030-yil 1-yanvargacha (22.11.2024-yildagi PQ-403-son):

- barcha turdagi soliqlardan (ijtimoiy soliq bundan mustasno) ozod qilindi. Bo'shaydigan mablag'lar zamonaviy o'quv qo'llanmalari, asbob-uskunalar sotib olish, binolarni rekonstruksiya qilish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul ta'lim xizmatlari ko'rsatish uchun yo'naltiriladi.

- chet el o'qituvchilari va mutaxassislarining daromad solig'i hamda ular ish haqiga hisoblangan ijtimoiy soliqdan ozod qilindi;

- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunolari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, adabiyotlar va moddiy-texnika resurslari importi QQSdan ozod qilindi. Tadbirkorlar ixtiyorida 350 mlrd so'm mablag' qoladi.

i) Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatishni rag'batlantirish maqsadida (16.02.2023-yildagi PQ-57-son):

- yuridik shaxslar umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganda mol-mulk va yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadi;

- ushbu qurilmalar orqali elektr energiyasini ishlab chiqarib umumiy tarmoqqa sotganda foyda solig'idani ozod qilinadi;

- qurilmalar foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 3 yil mobaynida, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega energiya to'plash tizimi bilan o'rnatilganda esa 10 yil mobaynida imtiyoz qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslar 1 kVtdan 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganda o'rnatilgan oydan boshlab 3 yil davomida, quyosh panellari 25 foizdan kam bo'lmagan energiya to'plash tizimi bilan o'rnatilganda esa 10 yil davomida mol-mulk solig'i bo'yicha 750 ming so'mgacha, yer solig'i bo'yicha 375 ming so'mgacha imtiyozdan foydalanadi. Mazkur imtiyoz hisobiga aholi va tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 53,4 mlrd so'm mablag' qoladi.

Jismoniy shaxslarga tegishli obyektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga Davlat budjetidan 1000 so'mdan subsidiya ajratiladi. Bunda subsidiya to'lovlari jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydi va soliqqa tortilmaydi. Subsidiya soliq organlari tomonidan har oyda «Soliq» mobil ilovasi orqali keyingi oyning 25-sanasiga qadar fuqarolarning bank plastik kartalariga o'tkazib beriladi.

y) Tadbirkorlarga ko'p qavatli ishlab chiqarish binolari foydalanishga topshirilgandan boshlab (bundan respublika shaharlarida, Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida joylashgan binolardan tashqari) 3 yil muddatga mol-mulk solig'i bo'yicha 0,9 dan 0,5 gacha pasaytiruvchi koeffitsiyent qo'llash huquqi berildi. Bunda yangi qurilgan ko'p qavatli ishlab chiqarish binolari bo'yicha soliq to'lovchilar hisoblangan soliq summasini 3 qavatli binoga nisbatan — 0,9, 4 qavatli binoga — 0,8, 5 qavatli binoga — 0,7, 6 qavatli binoga — 0,6, 7 va undan yuqori qavatli binoga — 0,5 pasaytiruvchi koeffitsiyent qo'llanilgan holda to'laydi. Buning natijasida 6011 ta obyekt bo'yicha 302,3 mlrd so'mlik soliq imtiyozi qo'llanilishi mumkin.

k) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan budjet subsidiyalari daromad solig'ini hisoblashda jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi.

l) Budjet tashkilotlari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo'yicha barcha turdagi soliqlarni to'lashdan 2027-yil 1-yanvargacha (2024-yil 1-yanvargacha edi) ozod qilindi, bundan ijtimoiy soliq mustasno.

m) 2025-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvargacha tadbirkorlik subyektlari foyda solig'ini hisoblashda o'z mablag'lari hisobidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog'liq xarajatlarni 2 yil davomida teng ulushlarda ushbu binolar qiymatining amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlarga kiritishga haqli. Bunda ular ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlarini bepul qabul qilish bo'yicha litsenziya talablarini bajarishlari shart, aks holda bu amortizatsiya chegirmalari Soliq kodeksining 306-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya normalarini hisoblagan holda bekor qilinadi.



n) 2027-yil 1-yanvargacha Prezident qarori bilan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha protez moslamalari va ularning butlovchi hamda ehtiyot qismlarini respublikaga olib kirishda QQSdan ozod qilindi.

o) 2024-yil 1-noyabrdan 2026-yil 1-yanvargacha rezident bo'lgan vagonlar (konteynerlar) operatorlarining vagonlarni (konteynerlarni) ijaraga berish bo'yicha aylanmasi QQSdan ozod qilindi.

p) Quyidagilar bekor qilindi:

– 2025-yil 1-yanvardan mobil aloqa xizmatlariga aksiz solig'i (10.02.2021-yildagi PQ-4986-son qarori). Operatorlar ixtiyorida 1 trln so'm mablag' qoladi.

– shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari uchun 2 baravar miqdorda yer solig'ini hisoblash tartibi (28.08.2024-yildagi PQ-304-son). Fermerlar ixtiyorida 7,1 mlrd so'm mablag' qoladi.

r) 2025-yil 1-iyuldan boshlab QQS zanjiri uzluksizligini ta'minlash maqsadida yo'lovchilarni yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha aylanma uchun QQS imtiyozini bekor qilindi. Ushbu korxonalarga 77 mlrd so'mlik imtiyoz berilgan bo'lib, ularga 63 mlrd so'm QQS summasini hisobga olish imkoniyati yaratiladi.

1.2. Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiq mahalliy va import aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich tenglashtirish maqsadida (03.06.2024-yildagi PF-85-son):

a) 2025-yil 1-yanvardan tamaki mahsulotlari bo'yicha:

– sigaretalarning har bir ming donasi uchun ichki bozorda 300 ming so'm va importda 330 ming so'm, 2025-yil 1-iyuldan esa yagona 340 ming so'mlik aksiz solig'i belgilandi (10 foizlik advalor qismi bekor qilindi);

– boshqa tamaki mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari oshirildi;

Nikotinli suyuqlikning (veyp) 1 ml uchun 2 ming so'm, sigaraga 20 ming so'm, elektron sigaretga 450 ming so'm/kg, chekiladigan, o'rama va chilim uchun 600 ming so'm/kg aksiz solig'i stavkalari belgilandi.

b) 2025-yil 1-yanvardan alkogol mahsulotlari bo'yicha (1 litri uchun):

aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlarining mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 44 ming so'm, importga — stavkani 25 foizga kamaytirib, 76 ming so'm;

mahalliy tabiiy vinoga — 5 ming so'm, importga — 14 ming so'm;

boshqa mahalliy vinolarga — 6 ming so'm, importga — 20 ming so'm;

mahalliy pivoga — 2 ming so'm, importga — 6 ming so'm;

mahalliy va import etil spirtiga — 15 ming so'm miqdorida aksiz solig'i stavkalari belgilandi.

v) 2025-yil 1-yanvardan boshlab don distillyatiga aksiz solig'i joriy qilindi, shuningdek texnik spirtni olish uchun sarflanadigan etil spirtining boshlang'ich fraksiyasiga aksiz solig'ini hisoblash tartibi bekor qilindi. Don distillyati 52 foiz hajmli etil spirtini o'zida aks ettiradi.

2-yo'nalish. Budget daromadlari barqarorligini ta'minlash

2.1. 2025-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilar belgilandi:

a) Aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan stavkasi:

– tovar aylanmasi 500 mln so'mgacha bo'lganda yiliga 30 mln so'm (amalda 25 mln so'm),

– 500 mln so'mdan yuqori bo'lganda — 40 mln so'm (amalda 34 mln so'm).

Ushbu soliq rejimi 2026-yil 1-yanvardan bekor qilinadi.

b) Elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlarga foyda solig'i stavkasi 10 foiz (amalda 7,5 foiz), aylanmadan olinadigan soliq 3 foiz (amalda 2 foiz) miqdorida belgilandi.

v) Quyidagilar 10 foizgacha indeksatsiya qilindi:

– noturar obyektlar bo'yicha mol-mulk solig'ining asosiy stavkasini (1,5 foiz) saqlab qolgan holda, soliq bazasini aniqlashda 1 kv.m uchun o'rnatilgan minimal qiymat:

Toshkent shahriga — 3,3 mln so'm (amalda 3 mln so'm),

Nukus shahri va viloyat markazlariga — 2,2 mln so'm (2 mln so'm),

boshqa joylarga — 1,3 mln so'm (1,2 mln so'm).

– jismoniy shaxslarning turar obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'i;

– qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i;

– jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

– yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning qat'iy miqdorda belgilangan stavkalari.

1 kub metr qum-shag'alga — 5 ming so'm (amalda 4,2 ming so'm), marmarga — 20 ming so'm (amalda 5,6 ming so'm), granitga — 30 ming so'm (amalda 5,6 ming so'm) va tabiiy bezaktoshga — 10 ming so'm (amalda 5,6 ming so'm) miqdorida soliq stavkasi belgilandi.

Bunda xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) kengashlariga noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkaga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berildi (amalda bunday vakolat mavjud emas).

g) 2025-yil 1-yanvardan boshlab yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar uchun yer solig'i bo'yicha imtiyozni bekor qilgan holda, soliq stavkasi 50 foizga kamaytirildi. Tadbirkorlarga 2,6 mlrd so'mlik imtiyoz taqdim etilgan.



d) Suv solig'i stavkalari:

- sanoat korxonalari, elektr stansiyalari hamda alkogolsiz va alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilindi;
- boshqa tarmoqlardagi korxonalar uchun suv solig'i stavkalari sanoat korxonalariga belgilangan stavkaga tenglashtirilib, yer usti suviga — 700 so'm (amalda 345 so'm), yer osti suviga — 850 so'm (amalda 415 so'm) etib belgilandi;
- suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida avtomobillarni yuvishda foydalaniladigan 1 kub metr suv uchun soliq stavkasi bir xil — 15 ming so'm (oldin yer osti suv uchun 2700 so'm, yer usti suv uchun 13 500 so'm edi) etib belgilandi.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda 0,5 dan 0,7 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi. Suvni tejaydigan texnologiyalar mavjud bo'lmaganda 1,1 koeffitsiyent qo'llaniladi. Xalq deputatlari tumanlar (shaharlar) kengashlariga suv solig'i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berildi (amalda bunday vakolat mavjud emas edi).

ye) Tabiiy gazga aksiz solig'i stavkasi 12 foiz (amalda 20 foiz) miqdorida belgilanib, import uchun aksiz solig'i joriy qilinmoqda.

yo) Yakka tadbirkorlar uchun 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

– qat'iy belgilangan soliq stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilindi hamda faoliyat turi va joylashgan hududiga qarab eng kam va eng yuqori stavkalar (diapazon) belgilandi. Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga (amalda tuman (shahar) kengashlari koeffitsiyent belgilashi mumkin) stavkalarni hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha belgilash vakolati berildi.

– Jami yillik daromadi 100 mln so'mgacha bo'lgan yakka tadbirkorning xodimlariga daromad solig'i o'rniga yakka tadbirkorga belgilangan qat'iy daromad solig'ining 50 foizini to'lash huquqi berildi (amalda oylik ish haqidan 12 foiz daromad solig'i to'lanadi).

Misol uchun, Xonqa tumanidagi dehqon bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkor o'zi uchun 65 ming so'm qat'iy soliq to'lagan bo'lsa, yollagan xodimi uchun 1 mln so'm oylik hisoblab, undan 12 foiz stavkada 120 ming so'm soliq to'lagan. Endilikda ushbu tadbirkor o'z xodimi uchun o'zi to'lagan soliqning yarmi, ya'ni 32,5 ming so'm soliq to'lash huquqiga ega bo'ladi.

Tadbirkorlar ixtiyorida 1,9 mlrd so'm qolishi kutilmoqda.

– Bozor va savdo majmualaridagi yakka tadbirkorlar o'z xodimlari uchun ijtimoiy soliqni yiliga 375 ming so'm miqdorida to'lashi belgilandi (amalda 2,2 mln so'm).

Tadbirkorlar ixtiyorida 0,5 mlrd so'm mablag' qoladi.

j) 2025-yil 1-apreldan boshlab neft mahsulotlariga belgilangan aksiz solig'i stavkalari 10 foizga oshirildi.

2.2. Soliq siyosatini takomillashtirish va budjet daromadlarini oshirish bo'yicha quyidagilar belgilandi.

a) Jahon savdo tashkiloti talablariga asosan tovarlar eksportidagi foyda va aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha berilgan imtiyoz bekor qilindi.

b) Tarkibida shakar va boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan gazlangan ichimliklarning har bir litriga 500 so'm miqdorida belgilangan aksiz solig'i 2025-yil 1-apreldan boshlab gazlanmagan ichimliklarga ham tatbiq etiladi. Bunda energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklarning 1 litri uchun amaldagi 2 ming so'mlik aksiz solig'i stavkasi saqlab qolindi.

2.3. 2025-yil 1-yanvardan boshlab yil davomida soliq va bojxona imtiyozlarini berish va bekor qilish yoki boshqa ajratmalar stavkalarini kamaytirish va oshirishni nazarda tutuvchi normalarni keyingi yildan boshlab amalga kiritish tartibi o'rnatildi (18.09.2024-yildagi PF-140-son Farmon).

3-yo'nalish. Ochiq muloqotdagi belgilangan vazifalar ijrosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-avgustdagi tadbirkorlar bilan 4-ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha tasdiqlangan PF-132-son Farmonga asosan quyidagilar belgilandi:

1. 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar umumiy ovqatlanish korxonalariga foyda solig'i stavkasi 50 foizga kamaytirildi.

2. 2024-yil 1-dekabrda umumiy ovqatlanish korxonalari jismoniy shaxslardan naqd pulga qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid qilganda kirim hujjatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi va ular soliq solish maqsadlarida kirim hujjatlariga tenglashtirildi. Ma'lumot uchun: qishloq xo'jaligi mahsulotlariga dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtiriladigan sabzavotlar, kartoshka, poliz mahsulotlari, mevalar, guruch, dukkakli ekinlar, go'sht va sut kiradi.

3. 2024-yil 1-oktabrdan boshlab turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini, 2025-yil 1-yanvardan boshlab esa umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlarga belgilangan talablardan kelib chiqib, to'langan QQSning bir qismi quyidagi miqdorlarda budjetdan qaytariladi:

a) umumiy ovqatlanish korxonalariga ularning oylik tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha aylanmasining naqd pulsiz qismi 60 foiz va undan yuqori bo'lganda — budjetga to'langan soliqning 40 foizi, 60 foizdan kam bo'lganda — budjetga to'langan soliqning 20 foizi;



b) turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga — budjetga to'langan QQSning 20 foizi.

4. Eksportda QQSni qaytarish uchun bojxona organlarining eksportni tasdiqlovchi elektron ma'lumoti asos bo'lishi belgilandi. Amalda tadbirkorlar bojxona chegara postidagi bojxona organlari muhri qo'yilgan hujjatlarini soliq organlariga taqdim etmoqda.

5. 2025-yil 1-yanvardan mulk huquqi asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini va davlat mol-mulkini realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadan QQSni hisoblash bekor qilindi. Tadbirkorlar ixtiyorida 250 mlrd so'm mablag' qoladi.

6. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlashga mo'ljallangan bino va inshootlar joylashgan yerlarga yer solig'ini hisoblash, noqishloq yerlar uchun belgilangan stavkaga 0,2 koeffitsiyent qo'llagan holda amalga oshirilishi belgilandi. Fermerlar ixtiyorida 135 mlrd so'm mablag' qoladi.

4-yo'nalish. Boshqa o'zgarishlar.

Budjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladigan infratuzilma loyihalari doirasida sotib olingan tovar va xizmatlar QQSdan ozod qilindi. Bunda infratuzilma loyihalariga nimalar kirishi aniqlashtirilib, faqat elektr, gaz va issiqlik ta'minoti, suv ta'minoti va kanalizatsiya, suv xo'jaligi, yo'l-transport infratuzilmasi, aloqa va telekommunikatsiya, agrologistika, sanitariya jihatdan tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish loyihalari doirasida sotib olingan tovar va xizmatlar 2028-yil 1-yanvargacha QQSdan ozod qilinishi belgilandi. Ushbu imtiyoz loyiha ishtirokchilariga ham tatbiq etilishi qayd etildi.

2025-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 2024-yilga nisbatan 10 foizga indeksatsiya qilingan holda tasdiqlandi. Turar joylarning 1 kv. metri uchun Toshkent shahrida — 28 ming so'm, viloyat markazlarida — 13,5 ming so'm, boshqa aholi punktlarida — 5,5 ming so'm; noturar joylarning 1 kv. metri uchun Toshkent shahrida — 45 ming so'm, viloyat markazlarida — 26,5 ming so'm, boshqa aholi punktlarida — 11 ming so'm etib belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi strategik omil sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliq imtiyozlarini maqsadli yo'naltirish va raqamlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Aholi bandligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, nodavlat ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish, qayta tiklanuvchi energiya bozorini rivojlantirish va Axborot texnologiyalari parkining eksport salohiyatini kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda soliq yengilliklari iqtisodiy faollikni sezilarli kuchaytirishi kutilmoqda. Shu bilan birga, ayrim imtiyozlarning bekor qilinishi, stavkalar tenglashtirilishi hamda JST talablariga moslashtirish jarayonlari milliy soliq siyosatining bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga yaqinlashib borayotganini ko'rsatadi.

Yangi tartiblarning kuchga kirishi soliq bazasini barqarorlashtirish, budjet daromadlarini oshirish, resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish va iqtisodiyotda shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Soliq siyosatining takomillashuvi muloqot va ochiqlik tamoyillariga tayangan holda, tadbirkorlarning real ehtiyojlarini inobatga olgan me'yorlar orqali mustahkamlanmoqda. Umuman olganda, joriy qilingan o'zgarishlar iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning amaliy natijalari kelgusi yillarda biznesning kengayishi, fiskal intizomning yaxshilanishi va bozor islohotlarining izchil davom etishi bilan namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov, A. (2021). O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. G'ulomov, M. (2020). Soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari. TDIU ilmiy jurnali, №3, 45–52-betlar.
3. Abdukarimov, B. (2022). Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy mexanizmlari. Samarqand davlat universiteti axborotnomasi, №2, 61–68-betlar.
4. Stiglitz, J. (2015). The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future. W.W. Norton & Company.
5. Musgrave, R. (1989). Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill Education.
6. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London.
7. OECD. (2020). Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. Paris: OECD Publishing.
8. World Bank. (2021). Modernizing Tax Administration: Global Experiences and Lessons Learned. Washington, D.C.
9. С.М.Оленников. Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления. // Юридическая ответственность и ответственные юристы. 2017. №4. С.37-42.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
